



2
0
2
4

№ 5



Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy,
innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid
ilmiy-amaliy jurnal



- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari



Muhandislik va Iqtisodiyot

*Elektron nashr,
563 sahifa, dekabr, 2024-yil.*

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Norboev Odil Abraevich, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dosenti

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Muhandislik va Iqtisodiyot

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonlarini iqtisodiy-matematik modellash	19
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
Yangi o'zbekistonda turmush tarzining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o'ri	27
Axunov Muhammadamin Abduvasitovich	
Radiolokatsion uzatmalar yordamida gaz ballonli avtomobillar texnik ekspluatatsiyasini nazorat qilish	32
Mirzayev Bahodir Nuriddinovich, Zulfiqorova Guldona Akbarjon qizi	
Moliya tizimini barqarorlashtirishning ustuvor yo'nalishlari	37
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Quyosh elektronikasida polikristallarning qo'llanilishi	42
Xoliqov Alimardon Sultonovich	
Статистический анализ производства плодоовощественной продукции в Республике Узбекистан	48
Анорбоева Бахтижамол Данияр кизи	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari	57
Yuldoshev Sobir Fayzullaevich	
Raqamlashtirish va sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini statistik tahlil qilish	63
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
Пути развития фондового рынка на основе цифровых технологий	70
Шукурова Луиза Баратовна, Эшдавлатов Боймурод Соатович	
Mathematical model and analytical solutions of the process of physics-chemical hydrodynamics	76
Ismanova Klara Dulanbaevna	
Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jaryonlarining ekonometrik va statistik tahlili	84
Jo'rayev Olim Albayevich	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni o'ri	91
Mardanaqulov To'liqin	
Studying the calculation process of gear geometry transmission in C++ and excel programs	95
Uzoqov Farxod G'afforovich	
Прогнозирование ожидаемых экономических изменений с корреляционно-регрессионного анализа (в примере: "NAFIS TEX GROUP" МСН)	101
Уринов Адхамджан Акбарович	
Современные модели поведения промышленных предприятий в условиях привлечения инвестиций	106
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
Управление инвестициями в развитие человеческого капитала как фактор повышения конкурентоспособности промышленных	112
Тилляходжаев А.А.	
алгоритмы принятия решений в управлении технологическими процессами подземного выщелачивания	119
Исманова Клара Дуланбоевна	



Kvant o'rali yarimo'tkazgichlarda optik yutilish koeffitsientini foton energiyasiga bog'liqligi.....	127
Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich	
Malein kislota angidridini oksidlab oksiran olish.....	133
Muhiddinov Baxodir Faxriddinovich, Xamroyev Kamoliddin Shaxobiddinovich, Qiyomov Sharifjon Nizomovich, Xusanov S.Y.	
Tadbirkorlik subyektlarini sug'urtalashning mintaqaviy xususiyatlari	138
Shuxrat Jalolidinovich Mamadjanov	
Jin mashinasining paxta tozalashdagi unumdorligini tahlil qilish va modellashtirish.....	144
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni eksport salohiyatini oshirish.....	151
Daniyarov Kuvatbay Daurxanovich	
O'zbekiston ipoteka bozorida "ESKROU" tizimini joriy qilinishi.....	156
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlili qilish masalalari.....	161
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Noaniqlik sharoitida moliyaviy operatsiyalar narxini baholashning nazariy asoslari.....	166
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
Elektr transport vositalarining paydo bo'lish evolyutsiyasi va batareyalarning kamchiliklarini hal qilinishi kerak bo'lgan muammolari.....	171
Moydinov Dilyorbek Abidjanovich, Zokirjonov Azizbek Zokirjon o'g'li	
Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi.....	179
Israilov Rustam Ibragimovich	
Ishlab chiqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi va baliqchilik tarmog'iga xos xususiyatlari.....	185
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
Tadbirkorlik faoliyati subyektlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash masalalari.....	189
Uzoqov Muhibillo Juraboevich	
Korporativ transformasiya sharoitida bank xizmatlarini takomillashtirishning ekonometrik tahlili.....	194
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
Iplarni turli muhitlarda namlikni o'zlashtirish ko'rsatkichlari.....	204
B.B.Mirzabaev, N.Yu.Sharibayev, B.T.Xolmurotov	
Un ishlab chiqarish korxonalarida donni sovuq konditsionerlash tizimining modellari va ularning tavsiflari.....	211
Akramova Gulhayo Abidovna, Yusupov Azamat Alijonovich	
Обоснование параметров ножа оборудования для резки плодоовощей.....	220
Худайбердиев Тохиржон Латифович	
Quritish usullarining zanjabil (zingiber officinale) ildizpoyasini kimyoviy tarkibiga ta'siri.....	226
Merganov Avazxon Turgunovich, Abdurasulov Abdurauf Xasanovich	
Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi	230
Nishanov Akhram Khasanovich, Mamajanov Rajmatilla Yakubjanovich, Xaidarov Sherali Islom o'g'li	
Vertical vibration analysis of conveyor with compound screw and belt bearing support.....	239
Marasulov Islombek Ravshanbek o'g'li	
Turkiston o'lkasidagi madrasalar holati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.....	250
Lukashova Natalya Mixaylovna	



Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi.....	256
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
Qishloq joylar resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlar	262
Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li	
Migratsiya jarayonlari va uni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari.....	269
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
Personnel policies and crisis management: modifying hr tactics during pandemics or economic downturns.....	276
Sarimsakov Bakhtiyor Rakhmonjanovich	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini hukumat tomonidan moliya-kredit mexanizmi orqali qo'llab-quvvatlashning zaruriyati.....	280
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
Tijorat banklari reytingini aniqlashda aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlarining tahlili	287
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Автоматизированная система эффективное управление перекрестками дорог для транспортных средств	292
Мамаджанов Рахматилла Якубджанович, Алиев Махмуд Муса оглы, Холбоев Алишер Бобохон оглы	
Роль железнодорожного транспорта в сфере туризма и развитие туризма в центральной азии	298
Мухамедова Ситора	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini transformasiyalashni takomillashtirish yo'llari.....	304
I.A. Yuldashev	
Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish mexanizmini takomillashtirish orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish.....	310
Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li	
Tijorat banklari depozit operatsiyalarining bugungi kundagi holati hamda uni takomillashtirish yo'llari.....	317
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Современное состояние демографического развития регионов Узбекистана	325
Цхай Лана Александровна	
Qurilish materiallar sanoatida klaster tizimidan foydalanishning xususiyatlari	335
Utarov Doniyorbek G'ayratbek o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
Исследование состава, физико-химических и эксплуатационных свойств битумов.....	339
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Абдуллаева Шохиста Шухратовна	
Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash	344
Yuldashev Fozil Turapovich	
Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	350
Djumaniyazov Ikram Karimbayevich	
Umumta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish choralari	355
Ummatov Avaz Muydinovich	
The production potential of developing agriculture in mountain and foothill areas.....	360
Abdulkhaeva Gulshan Makhmudovna	
Globalashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	366
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	



Server kompyuterning dasturiy ta'minoti va undan foydalanish.....	372
Otaxanov Nurillo Abdumalikovich, Aliyev Qaxramon Botirjonovich, Sayidov Nozimjon Abdunosirovich	
Tijorat banklari tomonidan resurslarni shakllantirish o'ziga xos xususiyatlari.....	390
Ortiqov Uyg'un Davlatovich	
Biznes jarayonlari raqobatbardoshligini oshirishni modellashtirish usullari	400
Xamidov Doston Rustam o'g'li	
Kichik biznes subyektlarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarning aylanma mablag'lari tarkibi va ularning samaradorligini baholash	406
Vazirov Azamat Yoqubjanovich	
Sug'urta bozorini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishning metodologik asoslari.....	412
Tuxtarova Maftuna Yo'ldoshboy qizi	
Tijorat banklari faoliyati barqarorligini reyting tizimi asosida baholashning turli usullari va xorij tajribasi.....	417
N.Q.Xolov	
Ta'lim klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishdagi muammolar.....	422
Qo'chqarov Toxir Fayzulla o'g'li, Rashidov Rahmatullo A'lojonovich	
Yangi g'o'za tizmalarining ho'jalik va sifat belgilari	430
Boltaboyev Xusniddin Abdig'anievich	
Methods for assessing financial-economic security of enterprises of the industrial cluster.....	434
Kholikova Rukhsora Sanjarovna	
Эконометрический подход определения влияния цифровизации экономики на развитие страны	443
Сапаев Д.Х.	
O'zbekistonda xalqaro standartlarning qo'llanilish tartib-qoidalari.....	448
Maxmonov Uktam Ashirovich, Ahmedova Sitara Asqar qizi	
Ishlab chiqarish korxonalarida kadrlar tayyorlash strategiyasini takomillashtirish	454
Adashev Azimjon O'rinboyevich, Mamatqulov Rustam Muxammadkarimovich	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda davlat grantining yo'nalishlari.....	460
Xusanov Otabek Nishonovich	
Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy tamoyillari	467
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini samarali tashkil etish masalalari.....	472
Mamatov Bahromjon Shavkatovich	
Sanoatda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish.....	479
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari	491
Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li	
O'zbekiston tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini rivojlantirish mohiyati.....	498
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni yo'lga qo'yish xususiyatlari.....	503
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Sug'urta tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda andarrayting xizmatidan foydalanish.....	510
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Soliq ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammolari.....	516
Abdurasulov Alisher Abdurasulovich	



Tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirishning yevropa tajribasi.....	521
I.I.Jo'rayev	
O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari	527
Ibodullaev Abror Axrorovich	
O'zbekiston pensiya tizimi islohotlarida xorijiy tajribani qo'llash	531
Zokirova Gavxar	
Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalangan holda mehmonxonalarda ovqatlantirish tizimini ekologik barqarorlik asosida rivojlantirish.....	537
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Xalqaro tajribada turizm transport xizmatlari: O'zbekiston uchun darslar.....	542
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Turizmda sug'urta va xavfsizlik kafolatlari: xorijiy tajriba va milliy yondashuv.....	547
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Mintaqa xalq hunarmandchiligi texnologiyasini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llanilishi	552
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish.....	556
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	

KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li

Toshkent xalqaro universiteti

Biznes va innovatsion ta'lim fakulteti

dekani, i.f.b.f.d., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Xususan, korxonaning moliyaviy farovonligi bevosita uning qancha kapitalga ega ekanligiga va korxona aktivlarining qanday shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy holati sof foydaning o'sishi, aktivlarning ortishi, korxona mol-mulki qiymatining oshishi hamda o'z kapitalining ko'payishi bilan belgilanadi va bu jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, valyuta kursi, foiz stavkalari, ta'minot zanjiri, pul oqimi, kapital, stress-test, daromad va xarajalar muvozanati.

Abstract: This article discusses the current importance of managing the financial stability of enterprises. In particular, the financial well-being of a company directly depends on the amount of capital it possesses and the structure of its assets. To a large extent, the financial condition of an enterprise is determined by the growth of net profit, the increase in assets, the appreciation of the company's property, and the expansion of its equity capital.

Keywords: financial stability, exchange rate, interest rates, supply chain, cash flow, capital, stress test, income and expenditure balance.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность управления финансовой устойчивостью предприятий на современном этапе. В частности, финансовое благополучие предприятия напрямую зависит от объема его капитала, а также от структуры и формирования активов. Во многом финансовое состояние предприятия определяется ростом чистой прибыли, увеличением активов, ростом стоимости имущества предприятия и увеличением собственного капитала.

Ключевые слова: Финансовая устойчивость, валютный курс, процентные ставки, цепочка поставок, денежный поток, капитал, стресс-тест, баланс доходов и расходов.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar, raqamlashuv va xususiylashtirish jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bir paytda korxonalar moliyaviy barqarorligini baholash va boshqarish yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Valyuta kurslari, foiz stavkalari, ta'minot zanjirlari va bozor talabidagi o'zgarishlar likvidlikka, nafililikka va qarz tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, koeffitsiyentlar tizimi bilan cheklanib qolmasdan, operatsion, investitsion va moliyalashtirishga oid pul oqimlarini kompleks tahlil qilish, ssenariy va stress-testlar o'tkazish orqali barqarorlikni xolis baholash zarur.

Moliyaviy barqarorlik nafaqat korxonaning biznes samaradorligi va ishbilarmonlik faolligining ijobiy darajasini saqlab qolish qobiliyatini aks ettiradi, balki investitsiya jozibadorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash hamda uni oshirish imkoniyatidir. Uni ta'minlashning asosiy sharti savdo hajmining o'sishidir, chunki daromad joriy xarajatlarni qoplash va foyda olish manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida korxonaning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun sharoit yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul mablag'lari korxonalar uchun moliyaviy majburiyatlarni bajarish zarur bo'lgan muhim aktivdir. Pul resurslarini samarali boshqarish tashkilot



barqarorligi, kelajakni rejalashtirish va majburiyatlarni bajarish uchun muhim ahamiyatga ega. Korxonada mavjud bo'lgan pul mablag'lari miqdori uning o'sish imkoniyatlariga, aktivlarni sotish jarayonlariga hamda aksiyadorlarga dividendlarni to'lash kabi omillarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Keynsning umumiy nazariyasi 1990-yilda naqd pulni saqlashning turli motivlarini, jumladan ehtiyotkorlik, tranzaksiya va spekulativ motivlarni ko'rsatib, uning moliyaviy barqarorlik va rentabellikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi. Naqd pul mablag'larini samarali boshqarish, Barret 1999-yilda ta'kidlaganidek, mablag'larni taqsimlashni optimallashtirish va qarz olishni minimallashtirish uchun xarajatlar bo'yicha o'z vaqtida qarorlar qabul qilishni, proaktiv bank faoliyatini yuritishni, daromadlarni yig'ishni va pul oqimlarini aniq prognozlashni o'z ichiga oladi.

Pul oqimlarini boshqarish tashkilotning likvid aktivlaridan foydalanishni optimallashtirish uchun ularni tizimli ravishda nazorat qilish, tartibga solish va investitsiya qilishni qamrab oladi. Bu biznesning barqarorligi va operatsion hayotiyliigi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Barret 1999-yilda pul mablag'larini boshqarishni naqd pul oqimi qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan strategik jarayon sifatida belgilaydi, Storkey esa 2003-yilda korxonaning majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan samarali bajarish uchun kerakli vaqtda hamda kerakli joyda naqd pulning to'g'ri miqdoriga ega bo'lish muhimligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarish bilan bog'liq faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari, shuningdek sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa hamda takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy sharoitlar barqaror, beqaror yoki inqirozli holatda bo'lishi mumkin. Barqaror holatga korxona o'zining uzluksiz faoliyati davomida erishadi va soliqlar, yig'imlar, xodimlarga ish haqi hamda aksiyadorlarga dividendlar kabi o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Buning uchun korxonalar kapital oqimi jarayonini o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish va to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun daromadlarning xarajatlardan yuqori bo'lishiga erishishi zarur.

Korxonaning moliyaviy farovonligi bevosita uning qancha kapitalga ega ekanligiga va aktivlarning qanday shakllanishiga bog'liq. Ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy holati sof foydaning o'sishi, aktivlarning ortishi, korxona mol-mulki qiymatining oshishi hamda o'z kapitalining ko'payishi bilan belgilanadi va bular muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida korxonaning moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi tarkibiy qismlar keltiriladi:



1-rasm. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi tarkibiy qismlari¹

1 Muallif ishlanmasi

Rasmda ko'rib turganimizdek, ushbu uch guruh — resurslar, kreditboplik, to'lov qobiliyati o'rtasidagi muvozanatlar (aktiv–passivlar, daromad–xarajatlar, pul oqimlari) ijobiy bo'lsa, oxirgi nuqtada korxonaning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi.

Agar korxonada qarz mablag'lari ulushi ortsa, unda sof foyda miqdori kamayadi va shunga mos ravishda kapitalning rentabelligi pasayadi. Quyidagi holatlarni korxona aktivlari tarkibidagi ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin:

- joriy aktivlarning o'sish sur'atlarining uzoq muddatli aktivlardan yuqori bo'lishi;
- o'z kapitalining 50 foizdan ortishi;
- joriy aktivlarning kamida 5 foizi uchun naqd pul mablag'lari mavjud bo'lishi.

Korxonaning to'lov qobiliyati — bu qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi. To'lov qobiliyati qulay ishbilarmonlik muhitini yaratadi va uning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, chunki bu samaradorlik bilan bog'liq aktivlar hamda kapitalning oqilona boshqarilishini anglatadi.

Tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilishning to'rt yo'nalishi mavjud:

Birinchidan, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha rejalarning bajarilishini baholashdir. Bu jarayon korxona strategiyasi amalga oshish darajasini, resurslardan foydalanish samaradorligini va barqaror naqd pul oqimlari ta'minlanishini aniqlovchi markaziy boshqaruv funksiyasi hisoblanadi. Baholash “reja–amal” taqqoslashiga asoslanadi va asosiy ko'rsatkichlarning ijrosini chuqur tahlil qilish orqali natijalarni omillar kesimida ochib beradi.

Ikkinchidan, korxona faoliyati hajmini oshirish sur'atlarini baholash lozim. Bunda talabni kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatini samarali boshqarish va mahsulot/xizmat qiymat taklifini kuchaytirish uyg'un strategiya asosida amalga oshiriladi. Marketing va sotuv kanallari diversifikatsiyasi, mijozlarni jalb etish va ularni saqlab qolish hamda o'rtacha chekni oshirish orqali sotuv drayverlari kuchaytiriladi. Assortimentni qayta tanlash va innovatsiya joriy etish yuqori marjali ulushni ko'paytirib, hajm o'sishini barqarorlashtiradi, narx siyosati esa talab elastikligini hisobga olgan holda dinamik boshqariladi.

Uchinchidan, korxonaning iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligi baholanadi. Iqtisodiy resurslarga mehnat, kapital (asosiy va aylanma), moddiy-energetik resurslar, axborot va texnologiya, vaqt hamda intellektual yoki nomoddiy aktivlar kiradi.

To'rtinchidan, korxonaning bozor barqarorligini baholash muhimdir. Bunda eng asosiy yo'nalish — qiymat taklifini aniq differensiatsiya qilish va mijozlar bazasini barqaror ushlab qolishdan iborat. Bu uchun narx siyosati elastikligini hisobga olgan holda dinamik praysingni qo'llash, assortimentni yuqori marjali va tez aylanuvchi SKUlar tomon optimallashtirish, oflayn, onlayn va dilerlik kanallarini diversifikatsiya qilish hamda yetkazib berishning uzluksizligini ta'minlash zarur.

Korxonaning moliyaviy holatini tezkor baholashda vertikal va gorizontal balans tahlilidan foydalaniladi. Vertikal tahlil balans valyutasida balans moddalarining ulushini hisoblashni o'z ichiga olsa, gorizontal tahlil yil boshidagi va hisobot sanasidagi balans ma'lumotlarini taqqoslashga asoslanadi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar to'plami asosida korxonaning likvidligi, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi va ishbilarmonlik faolligi darajasi aniqlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, moliyaviy holatni baholash turli darajadagi tafsilotlarda amalga oshirilishi mumkin.

Korxonaning moliyaviy holatini aniqlashda dastlabki diagnostika muhim bosqichdir. U korxonaning moliyaviy ahvolini tezkor va tizimli tarzda “skrining” qilish jarayoni bo'lib, keyingi chuqur tahlil uchun “xarita” tayyorlaydi. Uning maqsadi likvidlik, moliyaviy barqarorlik, naflilik va pul oqimlari sifatidagi asosiy xavf hamda imkoniyatlarni ilk bosqichda aniqlashdan iborat.

Korxonaning moliyaviy holati uning o'z faoliyatini moliyalashtirish qobiliyatini anglatadi. Bu korxonaning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi, ularni oqilona joylashtirish va samarali foydalanish darajasi, boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan moliyaviy munosabatlari, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi bilan tavsiflanadi.

Odatda, moliyaviy holat barqaror, ustuvor emas yoki inqirozli bo'lishi mumkin. Korxonaning o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirishi va faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirishi uning yaxshi



moliyaviy holatidan dalolat beradi. Aktivlar hajmining o'sish koeffitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Kaho' = (A_1 - A_0) / A_0, \quad (1)$$

bu yerda A_1, A_0 — hisobot va bazis davrlarida aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

Mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotishdan tushumning o'sish koeffitsiyenti ($Kmst$) quyidagicha belgilanadi:

$$Kmst = (ST_1 - ST_0) / ST_0, \quad (2)$$

bu yerda ST_1, ST_0 — hisobot va bazis davrlaridagi sotishdan tushum.

Foydaning o'sish koeffitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Kfo' = (F_1 - F_0) / F_0, \quad (3)$$

bu yerda F_1, F_0 — odatiy faoliyatdan olingan foyda (solliqqa — buxgalteriya foydasi)ning hisobot va bazis davrlaridagi qiymati.

Agar $Kmst$ va Kfo' Kpi dan yuqori bo'lsa, bu korxonaning xo'jalik vositalaridan foydalanish samaradorligi o'tgan davrga nisbatan oshganidan dalolat beradi, aks holda-teskarisi sodir bo'ladi.

Korxonaning moliyaviy holati — bu uning qarz majburiyatlarini qoplash qobiliyatini aks ettiradigan ko'rsatkichlar majmuidir. Moliyaviy holat tahlilining asosiy axborot manbalari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan iborat. Korxonaning moliyaviy ahvolini obyektiv baholash uchun bir qator davrlar kesimida mulkning (aktivlarning) o'rtacha qiymatidagi o'zgarishlarni korxona faoliyatining moliyaviy natijalaridagi o'zgarishlar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda korxona mulkning tarkibi va uni moliyalashtirish manbalari keltiriladi. Pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va real debitorlik qarzdorligi, ya'ni likvid aktivlar, 1 yil ichida qaytarish muddati keladigan qisqa muddatli majburiyatlarni (kreditorlik qarzdorligi, bank kreditlari va qarzarlar) qoplash manbai hisoblanadi. Likvid aktivlarning qolgan qismi esa uzoq muddatli majburiyatlarni (qaytarish muddati 1 yildan ortiq bo'lgan bank kreditlari va qarzarlar) qoplash uchun ishlatiladi. Agar barcha tashqi majburiyatlar qoplangandan so'ng korxona ixtiyorida yana ma'lum hajmdagi likvid aktivlar qolsa, ular aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash obyektiga aylanadi.

Korxonaning moliyaviy holati uning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyati natijalariga bog'liq. Agar ishlab chiqarish va moliyaviy rejalar muvaffaqiyatli bajarilsa, bu holat korxonaning moliyaviy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilmasligi tannarxning oshishiga, tushum va foyda miqdorining kamayishiga olib keladi, natijada esa korxonaning moliyaviy holati va to'lov qobiliyati yomonlashadi.

O'z navbatida, barqaror moliyaviy ahvol ishlab chiqarish rejalarining bajarilishiga va ishlab chiqarish ehtiyojlarini zarur resurslar bilan ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Kompaniya aktivlari tarkibi va uni moliyalashtirish manbalari²

Aktiv	Passiv
<i>O'zoq muddatli va aylanma aktivlar</i>	<i>Moliyalashtirish manbalari</i>
Uzoq muddatli (immobilizatsiya qilingan) aktivlar, foydalanish muddati 12 oydan ortiq	O'z kapitali:
Kechiktirilgan soliq aktivlari	kapital va rezervlar
Aylanma (mobil) aktivlar, foydalanish muddati 12 oydan oshmaydi:	Qarz kapitali:
zaxiralar	uzoq muddatli majburiyatlar
xarid qilingan qiymatliklar bo'yicha QQS	qisqa muddatli majburiyatlar
debitorlik qarzdorligi:	kredit va qarzarlar
uzoq muddatli	kreditorlik qarzdorligi
qisqa muddatli	kelgusi davr daromadlari

ta'sischi'larning ustav kapitaliga ulush qo'yish bo'yicha qarzdorligi	ishtirokchilar oldida daromad (dividend) to'lash bo'yicha qarz
qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	kelgusi xarajatlar uchun rezervlar
pul mablag'lari	boshqa qisqa muddatli majburiyatlar
boshqa aylanma aktivlar	

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, balansning aktiv va passiv guruhlarini o'rtasidagi moliyaviy bog'liqlik moliyalashtirish masalalarini quyidagicha ko'rib chiqishni taqozo etadi: qisqa muddatli qarz manbalari aylanma (mobil) aktivlarni to'ldirishga mo'ljallangan bo'lsa, uzoq muddatli o'z va qarz manbalari ko'chmas mulkni sotib olish, kapital qo'yilmalar hamda boshqa aylanmadan tashqari (vneoborotnye) aktivlar uchun xizmat qiladi.

Korxonaning aylanma kapitalini boshqarish bo'yicha yakuniy xulosalarni faqat balans tuzilmasini baholashga asoslanib chiqarib bo'lmaydi. Bu baholash aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar tahlili, shuningdek aylanish ko'rsatkichlari tahlili bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Debitorlik qarzdorligining mutlaq hajmi o'sishi mahsulot sotish hajmlari ortganda tabiiy holat bo'lishi mumkin va bu xaridorlar qarzlarni undirish darajasining yomonlashganini anglatmaydi. Shuningdek, debitorlik qarzdorligi ulushining kamayishi yoki ortishi ham qarzlarni undirish holati yaxshilandi yoki yomonlashdi, degan qat'iy xulosani bermaydi. Masalan, boshqa barcha sharoitlar o'zgarmas holda materiallarni uzoq muddatli zaxiraga xarid qilish aylanma aktivlarning boshqa tarkibiy qismlari ulushining tabiiy ravishda qisqarishiga olib keladi.

Aylanmadan tashqari aktivlar ulushini baholashda ularning asosiy qismini asosiy vositalar tashkil etadi. Shu sababli balans tuzilmasini baholashda eng avvalo asosiy vositalar ulushidagi sezilarli o'zgarishlar (3–5 % gacha oshishi yoki kamayishi) tahlil qilinadi. Keyin bu o'zgarishlarning sabablarini aniqlash zarur bo'ladi. Jumladan, sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- asosiy fondlarni sotib olish;
- asosiy vositalarni qayta baholash;
- amortizatsiya.

Aylanma aktivlar ulushini baholashda esa ularning ulushidagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun davr davomida asosiy tarkibiy qismlar dinamikasi o'rganiladi. Odatda, tarkibiy qismlarning 5 foizdan ortiq kamayishi yoki ko'payishi balans tuzilmasida aylanma aktivlar ulushining sezilarli o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Balansda o'z kapitalining ulushidagi o'zgarishlarni baholashda uning eng muhim moddalarini — taqsimlanmagan foyda va aylanmadan tashqari aktivlarni qayta baholash asos qilib olinadi. Ularning balans qiymatidagi sezilarli o'zgarish o'z kapitali summasini keskin oshirishi yoki kamaytirishi mumkin, bu esa o'z navbatida, uning ulushiga ta'sir qiladi. Biroq agar qarz mablag'lari miqdori ham mos ravishda qisqarsa, o'z kapitali summasining kamayishi passivlar tarkibidagi ulushiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

O'z mablag'lari dinamikasidagi o'zgarishlarni baholashda aniq raqamlar va zarur kapital summalari orasidagi tafovut tahlil qilinadi. Agar mavjud summa zarur qiymatdan yuqori yoki unga yaqin bo'lsa, xavotirga asos yo'q. Ammo agar u zarur qiymatdan past bo'lsa, bu holat o'z kapitalining rentabelligiga qanday ta'sir qilishini aniqlash va ushbu ko'rsatkichni bir necha hisobot davrlari bo'yicha kuzatish lozim.

Agar o'z kapitali ulushining qisqarishi rentabellikni pasaytirmagan bo'lsa, demak, jalb etilgan qarz mablag'lari korxona uchun juda qimmatga tushmayapti, ya'ni ular tarkibida foiz to'lovi bo'yicha yuqori xarajatli qarzlarni mavjud emas. Aksincha, agar rentabellik sezilarli pasaygan bo'lsa, qarz manbalarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Masalan, kreditlar ulushini kamaytirish, ularni arzonroq kredit va zaymlarga almashtirish, yirik kreditorlar bilan to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash (rassrochka) muddatini uzaytirish kabi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq.

Balans passivida uzoq muddatli majburiyatlar ulushidagi o'zgarishni baholash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:



- tahlil davri davomida ularning balansdagi ulushini hisoblash;
- ushbu majburiyatlarni aynan qaysi passivlar shakllantirayotganini aniqlash;
- sezilarli o'zgarishlarning sabablarini belgilash.

Uzoq muddatli majburiyatlar tarkibiga qaytarish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qarzlarni kiritiladi, jumladan:

– zaym va kreditlar — hisobot sanasidan keyin 12 oydan so'ng to'lanishi kerak bo'lgan, hali qoplanmagan kredit va zaym summolari;

– kechiktirilgan soliq majburiyatlari (otsrochlangan soliqlar) — bu ko'rsatkich soliq va buxgalteriya hisobidagi vaqtinchalik tafovutlar natijasida shakllanadi, xususan amortizatsiya qoidalari farq qilganda;

– boshqa uzoq muddatli majburiyatlar — olingan kredit va zaymlardan tashqari uzoq muddatli kreditorlik qarzdorligining boshqa turlari.

Odatda, ushbu moliyalashtirish manbalarini baholash ularning balans passividagi ulushi tadqiqot davrida 5–15 % dan oshganda amalga oshiriladi. Bunday baholash jarayonida kompaniyaning uzoq muddatli istiqboldagi qarzdorlik summasi aniqlanadi.

Ushbu ko'rsatkich ulushining o'sishi har doim ham uzoq muddatli qarzlarning mutlaq summasi ortishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, balansda qisqa muddatli zaymlar summasi sezilarli darajada kamaygan bo'lishi mumkin. Bunday holda passiv tuzilmasidagi umumiy o'zgarishni manfiy deb baholash qiyin. Ammo agar uzoq muddatli majburiyatlar nisbiy ulushining oshishi qisqa muddatli qarzlarni restrukturalizatsiya qilish hisobiga yoki qo'shimcha tashqi moliyalashtirishni talab qiladigan yirik investitsiya qo'yilmalari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, bunday o'zgarishni ijobiy deb baholab bo'lmaydi. Chunki bu turdagi majburiyatlarning ortishi kompaniyaning kreditorlarga bo'lgan qarzga bog'liqligini oshiradi.

Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini prognoz qilish maqsadida uzoq muddatli qarzlarni baholashda joriy strategiyani ham hisobga olish lozim. Uzoq muddatli qarzdorlikning ko'payishi vaqtinchalik bo'lishi va investitsiya bosqichi tugagach, uning qisqarishi rejalashtirilishi mumkin.

Qisqa muddatli majburiyatlar dinamikasini kompaniyaning joriy ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtiruvchi asosiy manbalar kesimida detallashtirib baholash kerak:

- barqaror passivlar (budjet va ish haqi bo'yicha qarzdorlik);
- bir yil ichida to'lanadigan kreditlar;
- hisob-kitoblardagi mablag'lar.

Agar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda daromad va xarajatlardagi o'zgarishlar sezilmasa, biroq balansda budjet oldidagi qarzdorlik keskin oshgan bo'lsa, bu davlatga soliq to'lovlari bo'yicha me'yordan ortiq qarzdorlik yuzaga kelganidan dalolat beradi. Bunga quyidagilar ham ishora qilishi mumkin:

– korxona aylanmalarining o'sish sur'atlariga nisbatan budjet oldidagi qarzdorlikning tezroq ortishi;

- budjet oldidagi qarzdorlikning aylanish davrining cho'zilishi.

Kreditorlik qarzdorligi korxonaning ta'minotchilar oldidagi qarzlarni aks ettiradi. Ushbu passivlarni baholashni debitorlik qarzdorligi tahlili bilan uyg'unlashtirish lozim, chunki bu ta'minotchilar va xaridorlar bilan munosabatlarning umumiy manzarasini beradi. Agar passivlarda kreditorlik qarzdorligi ulushi oshsa, kreditorlik va debitorlik qarzdorliklarining aylanish davrlarini taqqoslash zarur. Agar kreditorlik qarzdorligi aylanish davri debitorlik qarzdorligi davridan oshmasa, balans tuzilmasida bu qarzlarni ulushining o'sishi kompaniya moliyaviy barqarorligini maqbul darajada saqlash uchun yo'l qo'yilishi mumkin.

Kompaniya passivi tuzilmasi bo'yicha umumiy xulosa chiqarilganda moliyalashtirishning bir manbasi foydasiga katta nomutanosiblik bo'lishi maqbul emas. Normal ishlab chiqarish jarayonida barcha manbalardan oqilona foydalanish zarur.

Korxona balans passivining asosiy ijobiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- to'plangan kapitalning o'sishi (taqsimlanmagan foyda va rezerv kapitali);
- budjet, budjetdan tashqari jamg'armalar va ish haqi bo'yicha me'yordan ortiq qarzdorlikning mavjud emasligi yoki qoplanishi;
- qoniqarli kredit tarixi.

Kassa uzilishlarini, ya'ni pul oqimi uzilishlarini bartaraf etish nuqtayi nazaridan kreditorlar oldidagi qarzdorlikning oshishi ma'lum ma'noda ijobiy holat sifatida baholanishi mumkin. Bu chora aylanma aktivlar o'sishini foiz to'lanadigan kredit resurslarini jalb etmasdan moliyalashtirish imkonini beradi. Biroq agar ta'minotchilar hisob-fakturalarini to'lash muddatining uzaytirilishi jarimalar, penyalar qo'llanishiga yoki ta'minotchilarni yo'qotishga olib kelsa, dastlabki ijobiy samara ma'lum vaqt o'tib salbiy oqibatlar bilan almashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish — bu faqat hisob-kitob emas, balki uzluksiz davom etuvchi jarayondir. Barqarorlikni ta'minlash uchun korxona o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslar nisbatini oqilona ushlab turishi, aylanma kapitaldan samarali foydalanishi, pul oqimlarini rejali boshqarishi va xatarlarni oldindan baholashi zarur. Qarz yukini me'yorida saqlash, diversifikatsiya qilish, xarajatlarni optimallashtirish hamda stress-testlar o'tkazish orqali moliyaviy barqarorlikni kafolatlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кукушкина О. А. К вопросу о финансовой устойчивости предприятия // Экономические науки. — 2017. — № 4. — С. 42–49.
2. Маркарян Э. А. Финансовый менеджмент. — М.: КноРус, 2018. — 128 с.
3. Дорофеева Л. И. Финансовый менеджмент: учебное пособие. 2-е изд. — Саратов: Научная книга, 2019. — 191 с.
4. Пионткевич Н. С., Юзович Л. И. Развитие финансового консультирования в управлении финансами организации: монография. — Екатеринбург: Издательство УрГЭУ, 2021. — 191 с.
5. Шпилина Т. М., Ладин И. И. Стабилизация финансового состояния предприятия: разработка методики и оценка её эффективности // Экономика и предпринимательство. — 2022. — № 4. — С. 1404–1410.
6. Хамбулатова З. Р., Исмаилов И. М. Р. Финансовая устойчивость предприятия: анализ и пути улучшения // Экономика и предпринимательство. — 2021. — № 3. — С. 1407–1411.
7. Закирова Э. Р. Управление финансовыми ресурсами: учебное пособие. Ч. 2. — Екатеринбург: Издательство УрГЭУ, 2020. — 178 с.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

